

Ismoil Ergashovich Davronov
Buxoro davlat pedagogika instituti
dotsenti

Rabbimova Sarvinoz Jurabek qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti
magistranti

ALOHIDA TA'LIMGA EHTIYOJLI BOLALAR BILAN ISHLASHDA YUZAGA KELADIGAN QIYINCHILIKLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada alohida ta'limga ehtiyojli bolalar bilan ishlash jarayonida pedagoglar, ota-onalar va ta'lim tizimi duch keladigan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Unda psixologik, metodik, ijtimoiy va tashkiliy qiyinchiliklar yoritilgan bo'lib, ayniqsa o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi, resurslarning yetishmasligi, jamiyatdagi stereotiplar va integratsiyaga oid muammolar alohida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada ushbu muammolarga qarshi kurashish yo'llari, jumladan, inklyuziv yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va o'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ham bayon etilgan. Tadqiqot natijalari alohida ehtiyojli bolalarning samarali ta'lim olishini ta'minlashda tizimli yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: alohida ta'lim ehtiyotli bolalar, pedagogik qiyinchiliklar, individual yondashuv, psixologik to'siqlar, inklyuziv ta'lim metodlari, psixologik qo'llab quvvatlash.

CHALLENGES FACED WHEN WORKING WITH CHILDREN WITH SPECIAL EDUCATIONAL NEEDS

Annotation. This article analyzes the problems of children's educational activities, parents and the education system. It covers technical, methodological, social and organizational aspects, especially the problems of teachers' treatment support, resource generation, stereotypes in society and integration. The article also presents proposals and recommendations on ways to combat these problems, including the use of inclusive education, modern pedagogical technologies and teacher training. It shows the systematic need for ensuring effective education of children with medical support.

Keywords: special education, children with special needs, pedagogical difficulties, individual approach, psychological barriers, inclusive education methods, psychological support.

ТРУДНОСТИ, ВОЗНИКАЮЩИЕ ПРИ РАБОТЕ С ДЕТЬМИ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ

Аннотация. В статье анализируются основные проблемы, с которыми сталкиваются педагоги, родители и система образования при работе с детьми с особыми образовательными потребностями. Выделяются психологические, методические, социальные и организационные трудности, особое внимание уделяется уровню подготовки учителей, нехватке ресурсов, стереотипам в обществе и проблемам интеграции. В статье также излагаются пути решения этих проблем, включая инклюзивный подход, использование современных педагогических технологий и повышение квалификации учителей. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости системного подхода к обеспечению эффективного образования детей с особыми образовательными потребностями.

Ключевые слова: специальное образование, дети с особыми потребностями, педагогические трудности, индивидуальный подход, психологические барьеры, методы инклюзивного образования, психологическая поддержка.

Bugungi zamonaviy dunyo ta'lim tizimida insonparvarlik tamoyillari asosida har bir bolaga e'tibor qaratilmoqda. Sog'lom bolalar bilan birgalikda imkoniyati cheklangan alohida ta'limga

ehtiyojli bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasini a'lo darajada tashkil etish masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Bu toifadagi bolalar bilan ishlashda o'ziga xos pedagogik, psixologik va ijtimoiy yondashuvni talab etadi. Ularning o'qish, o'rganish va jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish har bir ta'lim muassasasining, pedagogning va ota-onaning muhim vazifasi hisoblanadi. Bu borada juda ko'plab ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borilyapti. Yetarlicha imkoniyatlar yaratib berilyapti. Nogironligi bor bolalarga ta'lim berishda pedagoglar, ota-onalar va jamiyatdan yuqori darajadagi e'tibor, malaka, sabr va bilim talab qilinadi.

Alohida ta'lim ehtiyojli bo'lgan bolalar (masalan, autizm, disleksiya, motor qobiliyatlarining cheklovlari, nutq buzilishlari va boshqalar) bilan ishlash zamonaviy ta'lim tizimining eng murakkab va mas'uliyatli sohalaridan biri hisoblanadi. Ushbu bolalarning individual ehtiyojlarini to'liq qondirish, ularning ijtimoiy hamda intellektual salohiyatini oshirish uchun pedagoglar, ota-onalar va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari zarur. Biroq, amaliyotda ko'plab qiyinchiliklar yuzaga keladi, ularni bartaraf etish esa innovatsion yondashuvlar, qat'iyat va tizimli ishlashni talab qiladi.

Mamlakatimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2020 yil 15 -oktyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonunida nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va imkoniyatlari mustahkamlangan. Mazkur qonunga binoan nogironligi bor bolalar — barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari tufayli hayotiy faoliyati cheklanganligi tufayli jamiyat va davlat tomonidan muhofazaga olinishi belgilangan. Yosh chegarasi esa o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar hisoblanadi.

Alohida ta'limga ehtiyojli bo'lgan bolalar har xil turdagi nogironlikka, rivojlanishdagi orqalanish yoki psixologik muammolarga ega bo'lishi mumkin. Shu sababli, ularga yagona ta'lim metodikasini qo'llash samara bermaydi. Har bir bola uchun individual ta'lim rejasini ishlab chiqish zarur va ular bilan individual ishlash psixologik, jismoniy, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bugungi kunda juda ko'p ta'lim muassasalarida alohida ta'limga ehtiyojli bolalar bilan ishlash uchun zarur texnik vositalar, maxsus darsliklar va qo'llanmalar yetishmaydi. Bundan tashqari, maxsus pedagog va defektolog kadrlarga ehtiyoj yuqori bo'lib boryapti. Ba'zi hollarda ota-onalar o'z farzandining alohida ehtiyojga ega ekanligini tan olishni istamaydilar yoki pedagoglar bilan samarali hamkorlik qilmaydilar. Bu holat bolaning rivojlanishini sekinlashtiradi. Bunday bolalarda o'rganish sur'ati, idrok darajasi, xotira va tafakkur faoliyati bo'yicha tengdoshlaridan farq qiladi. Shuning uchun odatdagi dars metodikasi ularning ehtiyojlariga to'g'ri kelmaydi. Pedagoglar darsni rejalashtirishda ularning psixofiziologik imkoniyatlarini hisobga olmagan taqdirda, bola materialni o'zlashtirmay qoladi. Kompyuter va texnik vositalar ta'minot yetishmasligi ham bunday muammolarni chigallashtiradi.

Zamonaviy inkluziv ta'limning asosiy tayanchlaridan biri bu — texnologiyalar yordamida individual ta'lim yaratishdir. Biroq ko'plab maktablarimizda sensorli moslamalar, dosklar, ekranli o'quv qurilmalari, tinglash va nutqni rivojlantirish uchun vositalar yo'q yoki juda kam miqdorda. Bolalar ko'pincha o'z tengdoshlariga nisbatan yopiq, uyatchan, o'ziga ishonchsiz bo'lalilar. Ular sinf jamoasida o'z o'rnini topishda qiynaladilar. Bu holat ularning o'zini past baholashiga va motivatsiyaning pasayishiga olib keladi. Afsuski, ayrim hollarda jamiyat bunday bolalarga nisbatan salbiy munosabatda bo'ladi. Boshqa o'quvchilar va hatto ayrim pedagoglar tomonidan kamsitilish hollari uchraydi. Bu esa bolalarda ruhiy tushkunlik, ijtimoiy chekinish va salbiy xatti-harakatlar yuzaga kelishiga olib keladi.

Bundan tashqari nogironligi bor bolalar bilan ishlash uchun maxsus bilim, sabr va kasbiy mahorat zarur. Biroq hozirda har doim ham maktablarda defektolog, tiflopedagog, surdopedagog, logoped yoki maxsus psixolog mavjud emas.

Bunday holatlarni bartaraf etish uchun:

1. Maxsus individual yondashuvni joriy etish, alohida ta'limga ehtiyotli bolalar bilan ishlashda "bitta o'lcham — hammaga" tamoyili samara bermaydi. Shuning uchun:

- har bir bola uchun individual o'quv rejasi tuzish;
- bilimlarni bosqichma-bosqich, sodda shaklda yetkazish;
- qo'llab-quvvatlovchi vizual, audio va kinestetik materiallar bilan darslarni boyitish lozim.

2. Pedagoglarning malakasini oshirish

Maxsus kurslar, o'quv mashg'ulotlari, seminar treninglar, onlayn treninglar orqali pedagoglar quyidagi yo'nalishlarda bilimlarini boyitishlari zarur:

- inkluziv ta'lim asoslari;
- maxsus pedagogika va defektologiya;
- psixologik yordam ko'rsatish usullari;
- konfliktli vaziyatlarni ijobiy yo'naltirish strategiyalari

3. Oilalar bilan uzviy hamkorlikni rivojlantirish ota-onalar bola rivojida asosiy rol o'ynaydi.

Shuning uchun har oyda bolaning rivojlanish holati bo'yicha individual uchrashuvlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.. Ota-onalar uchun psixologik yordam guruhi tashkil etilib, uy sharoitida bolani rivojlantirish bo'yicha yo'l-yo'riq berish zarur. Bundan tashqari Ijtimoiy qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish sinfda bag'rikenglik va mehr-oqibat muhitini shakllantirish uchun tengdoshlar bilan qo'shma loyihalar, rolli o'yinlar, guruhli mashg'ulotlar, "Do'stlik haftaligi", "Yaxshilik marafoni" kabi tadbirlar tashkil etish mumkin.

4. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda, alohida ta'limga ehtiyoqli bolalar bolalar uchun mobil ilovalar, maxsus o'yinlar, sun'iy intellekt asosidagi o'quv platformalari ta'limni yengillashtiradi. Masalan:

- nutq rivoji uchun — Talky, Speech Blubs;
- aqliy faoliyat uchun — Lumosity, CogniFit;
- o'yinli o'rganish uchun — Khan Academy Kids.
- ko'p hollarda maktablar va o'quv markazlarida individual dasturlar ishlab chiqilmagan, standart metodikalar asosida ishlash majburiyati mavjud.

- bolaning kognitiv yoki hissiy darajasiga mos materiallarning yetishmasligi.

O'qituvchilar Tayyorgarligi va Tajribasi Kamchiliklari

- maxsus pedagogika bo'yicha malakali kadrlar yetishmasligi.
- psixologik jihatdan tayyorlanish va bolalar bilan muloqot qilish usullarini bilmaslik.

5. Psixologik To'siqlar

- bolalarda o'zini qadrlash hissining pastligi, xavotir va stress holatlari.
- sinfdoshlar bilan munosabatlarda muammolar (masalan, kamsitish yoki chetlashtirish).

Alohida ta'limga ehtiyoqli bo'lgan bolalar bilan ishlashda samarali natijalarga erishish uchun tizimli, izchil va insonparvar yondashuv zarurdir. Har bir bola o'ziga xos salohiyatga ega bo'lib, ularni aniqlash va rivojlantirish jamiyatning burchidir. Yagona maqsad esa — barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar va quvonchli kelajak yaratishdir.

Alohida ta'lim ehtiyoqli bolalarning jamiyatda o'z o'rnini topishi va to'laqonli rivojlanishi uchun ularga sifatli ta'lim berish, ularni qo'llab-quvvatlash va muhitni moslashtirish zarur. Pedagoglar, ota-onalar va jamiyat birgalikda harakat qilgan taqdirda, barcha qiyinchiliklarni bartaraf etish mumkin. Har bir bolaning qalbida porlayotgan salohiyatni kashf etish — bu eng yuksak insoniy vazifadir.

Alohida ta'limga ehtiyoqli bolalar bilan ishlash—bu nafaqat pedagogik, balki insonparvarlik masalasidir. Ushbu bolalarning individual ehtiyojlarini to'liq anglash, ularga moslashtirilgan yondashuvni ishlab chiqish va jamiyatning faol hamkorligini ta'minlash orqali ularning salohiyatini ochish mumkin. Asosiy qiyinchiliklar qatoriga standartlashtirilgan ta'lim metodlarining yetishmasligi, o'qituvchilarning maxsus bilimlaridagi kamchiliklar, resurslar cheklovi, ijtimoiy stigma va psixologik to'siqlar kiradi. Biroq, bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yo'llar samarali bo'lishi mumkin:

1. Innovatsiyalarni joriy etish: Virtual reallik, interaktiv dasturlar kabi texnologiyalardan foydalangan holda ta'limni qiziqarli va samarali qilish.

2. Huquqiy va moliyaviy tayanch: Davlat tomonidan maxsus ta'lim sohasidagi qonunlarni takomillashtirish va loyihalarni moliyalashtirishni kuchaytirish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, alohida ta'limga ehtiyojli bo'lgan bolalar bilan ishlashda muvaffaqiyatning kaliti—barcha jabhalarda (pedagogika, psixologiya, tibbiyot, jamiyat) uyg'unlik va izchillikdir. Bolalarning har biri o'ziga xos dunyoga ega bo'lib, ularni tushunish, qadrlash va ular uchun imkoniyatlar yaratish—zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifasidir. Faqatgina shu yo'l bilan biz hamma uchun teng va quvonchli kelajakni qura olamiz. Alohida ta'lim ehtiyojli bolalarni qo'llab-quvvatlash nafaqat pedagogik, balki insoniy burchdir. Har bir bola – bu kelajagimiz. Uning qalbidagi ishonchni yoqish, imkoniyat eshiklarini ochish esa har birimizning burchimizdir. Zero "Har bir bola yulduz—uni porlashi uchun to'g'ri yondashuv kerak".

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2022-yil 18-may) — "Nogironligi bo'lgan bolalar ta'limini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-son qarori
- 2.. Inkluziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi .Toshkent.2021-yil
3. Abdurahmonova, M. Maxsus pedagogika asoslari. Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti. (2021)
4. Karimova, D . Inkluziv ta'lim: Nazariya va amaliyot. Toshkent: (2020)
5. Xolmatova N. , To'xtaeva Z. "Alohida ta'lim ehtiyojli bolalar bilan ishlashda pedagogik yondashuvlar", Pedagogika ilmiy-amaliy jurnali,(2022) 1(3), 45–50.
6. I.E.Davronov "Ijtimoiy pedagogika" Darslik. Buxoro: (2025) 147 b.
7. UNESCO. Inclusive education: guidelines for policy-makers. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.(2017)